

СЎЗ САЊАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 4 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 8, НОМЕР 4

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 8, ISSUE 4



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№4 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2025-4>

Бош муҳаррир:
Тўхтасинов Илҳом
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:
Тухтасинов Илхом
д.п.н., профессор (Ўзбекистан)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:
Tuhtasinov Ilhom
DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр
академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўғли
ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил
ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамед
к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт
Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шнукашвили Тамар
ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат
масъул қотиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

Мўминова Маъсума Ғолиб қизи
ф.ф.д., (PhD) вб. доцент

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр
академик. (Ўзбекистан)

Якуб Умар оғли
д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Миннуллин Ким
д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Керимов Исмаил
д.ф.н., профессор (Россия)

Джўраев Маматкул
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Куренов Рахиммамед
к.ф.н. (Туркменистан)

Кристофер Джеймс Форт
Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Мирзаев Ибодулло
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Балтабаев Ҳамидулла
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Дўстмухаммедов Хуршид
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Лиходзиевский А.С.
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Сиддикова Ирода
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Шнукашвили Тамар
д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат
отв. секретарь, PhD, доцент
(Ўзбекистан)

Муминова Масума Ғолиб қизи
PhD и.о. доцент

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov
academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort
University of Michigan (USA)

Umarchodjaev Mukhtar
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammadov Khurshid
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar
Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat
PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

Mo'minova Ma'suma
PhD Acting Docent
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

| | |
|---|-----|
| 1. Tajibayeva Latofat Farxodovna TABIAT VA INSON MUNOSABATLARINING ADABIYOTDA AKS ETISHI..... | 5 |
| 2. Syuy Myao КРАТКОЕ РАССМОТРЕНИЕ ЯЗЫКОВОЙ И РИТОРИЧЕСКОЙ ЭСТЕТИКИ В «ЗОЛОТОЙ ЦЕПИ» ЧЖАН АЙЛИН..... | 9 |
| 3. Najmiyeva Po‘lotoy Tilavmurodovna O‘ZBEK VA YAPON TILLARIDA KELISHIK QO‘SHIMCHALARI VA YAPON TILIDAGI KELISHIK PARTIKULALARINING MORFOLOGIK HAMDA SINTAKTIK MOHIYATI..... | 14 |
| 4. Lutfilloeva Faxriniso Maxmudovna ЯПОН МИЛЛИЙ МАФКУРАСИДА ТИЛ ОМИЛИ ВА УНИНГ ИДЕОЛОГИК КОНЦЕПЦИЯСИ..... | 20 |
| 5. Shaniyazov Jenisbay Ungarbaevich TURKIY VA INGLIZ TILLARIGA MUSHTARAK SO‘ZLAR HAQIDA..... | 25 |
| 6. Ergasheva Tursunoy Abdukaюmovna ҚЎШИЛГАН ҚИЙМАТ СОЛИФИ ВА SALES TAX АТАМАЛАРИНИНГ ПРАГМАЛИНГВИСТИК ҚИЁСИЙ ТАХЛИЛИ..... | 29 |
| 7. Xolikov Bahodir DEV O‘ZBEK MIFOLOGIYASI DOMINANT OBRAZALARIDAN BIRI SIFATIDA..... | 34 |
| 8. Nilufar Abduraxmonova, Mahliyo Eshmamatova PARALLEL KORPUS ASOSIDA RAVISHDOSHLI BIRIKMALARNING SEMANTIKASI VA STRUKTUR MODELLARI TADQIQI..... | 40 |
| 9. Hasanova Sevinch Hotam qizi THE MULTILEVEL STRUCTURE OF THE LANGUAGE SYSTEM AND ITS CONCEPTUAL INTERPRETATION IN TRANSLATION THEORY..... | 52 |
| 10. Namazova Manzura Urakovna O‘ZBEK ADABIYOTIDA PSIXOLOGIZM (O‘ZBEK ROMANLARI ASOSIDA)..... | 58 |
| 11. Mavloнова Наргиза Алишеровна ПРИНЦИПЫ ОТБОРА ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ СООТВЕТСТВИЙ И ИДЕОГРАФИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ АНГЛИЙСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ И ИХ СООТВЕТСТВИЙ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ..... | 63 |
| 12. Ismailov Anvar Rustamovich CHET TILI O‘QITUVCHILARNING PEDAGOGIK KOMPETENSIYASINING MOHIYATI..... | 70 |
| 13. Achilova Zuxra Qurbonovna “MALLA SAVDOGAR” DOSTONI VARIANTLARIDA AVAZXON BILAN BOG‘LIQ SAFAR MOTIVI VA VAQT KULTI..... | 75 |
| 14. Abduraxmonova Nilufar Zaynobiddin qizi, Xoljurayeva Yulduz Sobir qizi O‘ZBEK TILIDAGI NORP OBYEKTLARINI BIOES ANNOTATSIYA SXEMASI ASOSIDA ANIQLASH..... | 88 |
| 15. Kim Татьяна Сергеевна ДИСКУРСИВНЫЙ АНАЛИЗ НОВОСТНОГО ТЕКСТА КОРЕЙСКИХ ГАЗЕТ..... | 96 |
| 16. Лазиза Джиянбаева РАНГ КОМПОНЕНТЛИ ТУРФУН БИРИКМАЛАР..... | 102 |
| 17. Laziza Dzhiyanbayeva SOCIAL CHARACTERISTICS OF COLOR SEMANTICS..... | 108 |
| 18. Makhammatkulova Diyora Nodirovna, Makhammatkulova Iroda Nodirovna, Rahimov Nodir Makhammatkulovich DIGITAL FOOTPRINT AS A PHENOMENON OF MODERN EDUCATION..... | 114 |

| | |
|--|-----|
| 19. Boboyev Ulash Ne'matovich OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI TILINING LEKSIK IMKONIYATLARI (GAZETA TILI MISOLIDA)..... | 120 |
| 20. Файзуллаева Мохинорабегим Бехзодбек кизи СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РЕЧЕВЫХ АКТОВ ИЗВИНЕНИЯ В КИТАЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ..... | 124 |
| 21. Rashidova Muxlisa, Sobirova Madina Mahmudjon qizi UNIVERSAL DEPENDENCIES MODELI DOIRASIDA SINTAKTIK ANNOTATSIYALANGAN KORPUSLARNI TAHLIL QILISH..... | 129 |
| 22. Ишниязова Шахноз Ашировна МИФОЛОГИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ И ТОТЕМИЧЕСКИЕ МОТИВЫ В УЗБЕКСКОЙ ПРОЗЕ XX ВЕКА: К ПРОБЛЕМЕ ТИПОЛОГИЧЕСКОЙ БЛИЗОСТИ С ПРОИЗВЕДЕНИЯМИ ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА..... | 135 |
| 23. Тошбекова Дилором Исмоиловна СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СТРУКТУРНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ИРОНИЧЕСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ..... | 143 |
| 24. Умурова Гузал Хотамовна ПСИХОЛОГИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТВОРЧЕСТВА - ЗНАЧИМОСТЬ КОМПЛЕКСНОГО ПОДХОДА К ИЗУЧЕНИЮ И ОРГАНИЗАЦИИ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ..... | 149 |
| 25. Даминова Фазода Ирисовна ТЕОРЕТИКО-ИСТОРИЧЕСКИЕ И МИРОВОЗЗРЕНЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ДРЕВНЕРУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ..... | 154 |
| 26. Усманова Салиха Юлдашевна ИЗ ИСТОРИИ ИЗУЧЕНИЯ ВВОДНО-МОДАЛЬНЫХ ЕДИНИЦ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ..... | 161 |
| 27. Hakimov Muxamadali Rafikovich ITALYAN TILIDA "ERKAKLIK" GENDER TUSHUNCHASINING LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY TAHLIL..... | 170 |
| 28. Lola Ibragimova INGLIZ VA O'ZBEK FRAZELOGIYASI: STRUKTUR-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLAR (SOG'LIQ-SALOMATLIK MAQOLLARI MISOLIDA)..... | 176 |
| 29. Nazirova Munisa Mirzakamalovna MODAL BIRLIKLARNING LINGVISTIK VA PRAGMATIK ASOSLARI..... | 182 |
| 30. Sharipov Raufjon Elmurod o'g'li AKADEMIK G'ANIJON ABDURAHMONOVNING "TARIXIY SINTAKSIS" ASARIDA QO'SHMA GAPLAR EVOLYUTSIYASI..... | 186 |
| 31. N.Z.Abduraxmonova, Salomat Otamurodova MASHINA TARJIMASI VA LINGVISTIK JARAYONLAR..... | 191 |
| 32. Davlatova Hulkaroy Uktamovna BOLALARDA TIL VA TAFAKKURNING SHAKLLANISHI: LINGVOKOGNITIV YONDASHUVDA NAMOYON BO'LISHI..... | 198 |




ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

Davlatova Hulkaroy Uktamovna

Andijon davlat chet tillari instituti

Ingliz tili nazariy aspektlari kafedrasasi dotsenti

BOLALARDA TIL VA TAFAKKURNING SHAKLLANISHI: LINGVOKOGNITIV YONDASHUVDA NAMOYON BO‘LISHI <https://doi.org/10.5281/zenodo.20612466>**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada bolalarda til va tafakkurning shakllanishi va lingvokognitiv yondashuvda namoyon bo‘lishi borasida fikr yuritilgan. Shu bilan birga, soha vakillarining fikrlarining mulohazasi keltirilgan. Til va tafakkur insonning nutq ontogenez jarayonidagi fundamental kognitiv determinantlar qatoriga kiradi. Til bola ongining shakllanishida oddiy kommunikativ vosita sifatida emas, balki tushunchaviy strukturalarni hosil qilish, kategorizatsiya jarayonlarini amalga oshirish hamda ma‘lumotni kodlash va uzatishning kognitiv mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Lingvokognitiv yondashuv bolalar nutq ontogenezinin shakllanishini tafakkur jarayonlari bilan dialektik aloqada tahlil qilish orqali bu integrativ jarayonning mohiyatini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: bola, til, fikr, tilshunoslik, nutq, psixolingvistik, tafakkur, lingvokognitiv yondashuv, psixolingvistik paradigma, psixik faoliyat

Hulkaroy Uktamovna DavlatovaAssociate Professor, Department of
Theoretical Aspects of the English Language
Andijan State Institute of Foreign Languages**THE FORMATION OF LANGUAGE AND THINKING IN CHILDREN: ITS MANIFESTATION WITHIN THE LINGUOCOGNITIVE APPROACH****ABSTRACT**

This article discusses the formation of language and thinking in children and their manifestation within a linguocognitive approach. It also presents reflections on the views of scholars in the field. Language and thinking are among the fundamental cognitive determinants in the process of speech ontogenesis. Language, in the development of a child's consciousness, functions not merely as a means of communication, but as a cognitive mechanism for forming conceptual structures, carrying out categorization processes, and encoding and transmitting information. The linguocognitive approach reveals the essence of this integrative process by analyzing the formation of children's speech ontogenesis in a dialectical relationship with thinking processes.

Keywords: child, language, thought, linguistics, speech, psycholinguistic, thinking, linguocognitive approach, psycholinguistic paradigm, mental activity

Давлатова Хулкаррой Уктамовна

Доцент кафедры теоретических аспектов английского языка
Андижанский государственный институт иностранных языков

ФОРМИРОВАНИЕ ЯЗЫКА И МЫШЛЕНИЯ У ДЕТЕЙ: ПРОЯВЛЕНИЕ В РАМКАХ ЛИНГВОКОГНИТИВНОГО ПОДХОДА

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются вопросы формирования языка и мышления у детей и их проявление в рамках лингвокогнитивного подхода. Также приводится анализ взглядов представителей данной области. Язык и мышление относятся к числу фундаментальных когнитивных детерминант в процессе онтогенеза речи. Язык в формировании сознания ребенка выступает не просто как средство коммуникации, но и как когнитивный механизм формирования концептуальных структур, осуществления процессов категоризации, а также кодирования и передачи информации. Лингвокогнитивный подход раскрывает сущность данного интегративного процесса через анализ формирования онтогенеза детской речи в диалектической взаимосвязи с процессами мышления.

Ключевые слова: ребенок, язык, мышление, лингвистика, речь, психолингвистический, мышление, лингвокогнитивный подход, психолингвистическая парадигма, психическая деятельность

KIRISH. Bolalarda til va tafakkurning shakllanishi borasida Yevropa, rus tilshunosligi va psixolingvistikasida bola lingvokognitiv hamda ijtimoiy rivojlanishining nazariy asoslarini tadqiq etishda bir nechta yondashuvlar shakllandi. Biz bu yondashuvlarni L.S. Vigotskiy, A.N. Leontyev, J. Piaget va A. Vollon kabi yetuk olimlarning nazariy qarashlari bilan bevosita bog'lashimiz mumkinki, ular psixolingvistik paradigmaning shakllanishi, tafakkur va nutqning o'zaro munosabatini tadqiq etish zaruratini asoslab berganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bolalardagi til va tafakkurning lingvokognitiv yondashuvi turli davrlarda psixolog va tilshunoslar A.R. Luriya, V.M. Pavlov, D.I. Slobin, Yu.N. Karaulov tomonidan turlicha ilmiy talqin etilganiga qaramay, ularning barchasi tafakkur va nutqni insonning ijtimoiy va madaniy faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida tadqiq etishga intilganlar.

L.S. Vigotskiy tomonidan ilgari surilgan psixik faoliyat modeli inson ongining shakllanishini individual biologik tuzilmalardan emas, balki ijtimoiy muhit, tashqi omillar va madaniy vositalarning o'zaro ta'sirida yuzaga keladigan tarixiy taraqqiyot mahsuli tarzida tadqiq etadi. A.R. Luriya, L.Vigotskiy konsepsiyasining mohiyatini quyidagicha ta'riflagan: "Vigotskiyning asosiy g'oyasi, o'zining tashqi paradoksaligi bilan ajralib tursa-da, ongli faoliyatning eng murakkab shakllarini tushunish uchun inson organizmining anatomik-fiziologik chuqurliklariga emas, shu bilan birga, ijtimoiy hayotning tashqi shart-sharoitlariga moslashishi kerak". A.R. Luriyaning fikrlariga qo'shimcha ravishda, Yu. N. Karaulov "tilni to'liq anglash uchun uning tashuvchisi bo'lgan shaxsga, ya'ni muayyan til shaxsiga murojaat etmasdan bo'lmaydi" degan fikrni ilgari suradi. Keltirilgan lingvokognitiv yondashuv tilni abstrakt tizim sifatida emas, balki faoliyatda namoyon bo'ladigan nutqiy jarayonlar orqali o'rganish zarurligini taqozo etadi. Shu tariqa, til va tafakkur o'rtasidagi dinamik munosabat inson shaxsining ijtimoiy-madaniy taraqqiyotida asosiy determinant sifatida namoyon bo'ladi.

ASOSIY QISM. Yevropa tilshunosligida bolalarda til va tafakkurning shakllanishi tadqiqiga oid lingvokognitiv yondashuvlar orasida J. Piajening intellektual rivojlanish haqidagi nazariyasi alohida ahamiyatli hisoblanadi. Unga ko'ra, bolaning lingvokognitiv taraqqiyotini tushuntirishda sensorimotor intellekt, sxemalar, egosentrik nutq, markazlashtirish kabi ilmiy tushunchalarni muomalaga kiritib, avvalgi yondashuvlarda ustuvor bo'lgan miqdoriy o'zgarishlarga asoslangan tasviriy model rad etiladi. U bolaning tashqi xatti-harakatlari ortida yashiringan lingvokognitiv jarayonlarga e'tibor qaratib, tafakkurning ichki mexanizmlarini ochib berishga intiladi. Uning tadqiqotlari orqali bolaning intellektual rivojlanishi bosqichlari nafaqat muayyan yoshga xos, balki sifat jihatidan farqlanuvchi bosqichlar ekanligi aniqlangan va bir bosqichdan ikkinchisiga o'tishda

kognitiv tuzilmalarda ro‘y beradigan sifat o‘zgarishlari izchil ilmiy asoslanganligini ko‘rishimiz mumkin.

Shu o‘rinda, L.S. Vigotskiyning nutq va tafakkurning o‘zaro munosabatini yorituvchi kontseptsiyasi bilan birgalikda, A.N. Leontyev tomonidan ilgari surilgan lingvokognitiv yondashuvi J. Piagetning intellektual rivojlanish nazariyasi va A. Vallonning emotsional va kognitiv integratsiyaga asoslangan nazariyalari bilan bir qatorda insonning oliy aqliy funksiyalari ontogenezi hamda til qobiliyatining shakllanishida ijtimoiy omillarning belgilovchi rolini asoslab bergan yondashuvlar qatorida e‘tirof etiladi. Ushbu nazariyalar birlashgan holda, bolalarning nutq va tafakkur taraqqiyotini izohlovchi zamonaviy Yevropa psixolingvistikasining ilmiy poydevorini shakllantirishga asos solgan.

Til va tafakkur insonning nutq ontogenezi jarayonidagi fundamental kognitiv determinantlar qatoriga kiradi. Til bola ongining shakllanishida oddiy kommunikativ vosita sifatida emas, balki tushunchaviy strukturalarni hosil qilish, kategorizatsiya jarayonlarini amalga oshirish hamda ma‘lumotni kodlash va uzatishning kognitiv mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Lingvokognitiv yondashuv bolalar nutq ontogenezi shakllanishini tafakkur jarayonlari bilan dialektik aloqada tahlil qilish orqali bu integrativ jarayonning mohiyatini ochib beradi. Tadqiqotimizning mazkur qismida, bolalarda til va tafakkurning shakllanishi, ularni lingvokognitiv yondashuvda namoyon bo‘lishi borasida fikr yuritamiz.

Bolalarda til va tafakkurning shakllanishi til fenomenini inson tafakkurining tashqi ekspressiyasi sifatida talqin etadi. Ushbu yondashuv asosida bolalardagi nutq ontogenezi, avvalo ularni atrof-muhitni anglash, tushuncha shakllantirish, bilimlarni tizimlashtirish va tasniflash kabi kognitiv jarayonlarini tashqi verbal tizim orqali modellashtiruvchi mexanizm sifatida qaraladi.

MUHOKAMA/NATIJALAR. Tilshunoslik va kognitiv fanlar kesishgan nuqtasida faoliyat yuritgan ingliz va rus tilshunos olimlaridan A.A. Ufimseva, E. V. Clark, G. Lakoff, M. Johnson, T. A. van Dijk lingvistik va kognitiv fanlar kesishmasida faol izlanishlar olib borib, yuqorida keltirilgan paradigmaning shakllanishi va ilmiy asoslanishiga sezilarli hissa qo‘shganlar. Lingvokognitiv model doirasida tilning semantik, leksik va sintaktik darajadagi tuzilmalari inson tafakkurining ichki mental konstruksiyalari ya‘ni kognitiv sxemalar, freymlar va kontseptual metaforalar bilan tizimli uyg‘unlikda o‘rganiladi. Ayni paytda bolalar tilining shakllanishi va tafakkur jarayonlari o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir dinamikasi ijtimoiy muhit, madaniy an‘analar hamda individual ontogenezi bilan kompleks aloqadorlikda namoyon bo‘ladi.

Til va tafakkur munosabatining o‘zaro ta‘sirini nazariy-metodik masalalari tarixan ko‘p tarmoqli ilmiy sohalarning, jumladan, falsafa, pedagogika, huquqshunoslik va sotsiologiya kabi fanlarning izlanish obyektiga aylangan. Bu ikki fenomenning integratsiyalashgan holda tahlil qilinishi inson ongining shakllanishi, ijtimoiy ong strukturalari va axloqiy-ideologik tushunchalarning uzviy bog‘liqligini aniqlashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. A.D. Palkinning haqli ravishda ta‘kidlaganidek, “inson hayoti va olamning ontologik tuzilishida ideal va material kategoriyalarning nisbiy o‘rnini aniqlash jarayonida til va tafakkur munosabatini e‘tibordan chetda qoldirish mutlaqo mumkin emas”. Demak, til va fikr uyg‘unligining nazariy talqini faqat lingvistik nuqtai nazardan emas, balki insoniyat tafakkurining umumilmiy asoslarini yoritishda ham markaziy o‘rin tutadi.

Aql va aqliy salohiyat inson nutqi ontogenezi shaxsning intellektual hamda psixik rivojlanishini belgilovchi markaziy omillar sirasiga kiradi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bola rivojlanishining muhim tarkibiy jihatlaridan biri bo‘lgan nutq faoliyatining dastlabki ontogenezi bosqichida, bir va ikki yosh oralig‘ida ularning nutqi shakllana boshlaydi. Mazkur davr mobaynida bolaning ekspressiv-mimik, obyektga yo‘naltirilgan va faoliyat bilan bog‘liq kommunikativ vositalari sezilarli darajada rivojlanib, kognitiv va psixomotorik murakkablik darajasiga ko‘tariladi. Bu bosqichda markaziy asab tizimi yosh fiziologik holatiga monand darajada funksional yetuklik kasb etib, bola nutqida atrof-muhitga oid so‘zlarni faol idrok eta boshlaydi, fazoviy borliqni egallaydi va ijtimoiy muloqotga kirishishga intiluvchi subyektga aylanadi. Ushbu o‘zgarishlar jarayonida asosiy atrof-muhitdagi shaxslar, ya‘ni yaqin ota-onalar, aka-opalari, tasodifiy muloqot subyektlari sifatida va majburiy ijtimoiy aloqa manbalari ekstralingvistik vositalar (qo‘shni bolalari, enagalari) hal

qiluvchi rol o'ynaydi. Nutq ontogenezi, mazmunan tafakkur bilan bevosita interaktiv munosabatda mavjud bo'lgan, ijtimoiy belgilangan va belgilar orqali mujassamlashtirilgan tizim bo'lib, u shaxslararo nutqiy muloqotning asosiy shaklini tashkil etadi. Til, o'z mohiyatiga ko'ra, inson ongining ob'yektiv reallikni umumlashtirish, vositalashtirish asosida idrok etuvchi, uni muhim belgi va qonuniyatlar shaklida aks ettiruvchi aqliy faoliyati sifatida talqin qilinadi.

Bolalarning ijtimoiy-og'zaki nutqiy muloqoti faoliyatida til va tafakkur o'zaro dinamik aloqa sifatida shakllanadi, bu o'zaro ta'sir tanlab yuzaga keladigan jarayon emas, balki tilshunoslikda tabiiy-ontogenetik zarurat sifatida qaraladi. Nutqiy ontogenez rivojlanishining dastlabki bosqichlarida bola nafaqat atrofidagi uni qiziqtirgan barcha narsalarni bilishga qiziqadi, balki faol kommunikativ subyektga aylanadi. Uning umumlashtirishga, yangi ijtimoiy aloqalarga kirishishga, doira kengaytirishga bo'lgan intilishi ikki yoshdan boshlab sezilarli darajada faollashadi: bu bosqichda bola onasi hamrohligida bog'liqlikni bosqichma-bosqich yengib, mustaqil subyekt sifatida ijtimoiy maydonda faol nutqiy muloqotga intiladi. Biroq bunday ijtimoiy adaptatsiya va ekspressiv faollik uchun zaruriy holat, bu og'zaki nutq ko'nikmalarining mavjudligidir. Bola o'z fikr, ehtiyojlarini, emotsional holatini, talab va istaklarini atrofda qilargalarga yetkazish uchun, hatto yetarlicha normativ bo'lmagan yoki boshqalarga doimo tushunarli bo'lmasa ham shaxsiy ifoda shakllaridan foydalanishga intiladi. L.S. Vigotskiy bu holatni nazariy asoslarini yaratgan holda, bola nutqining ijtimoiy rivojlanishdagi ajralmas funksional ahamiyatini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, nutq vositasiz amalga oshiriladigan muloqotning eng ibtidoiy shaklidagi signal almashinuvi bo'lib, mohiyatiga ko'ra to'laqonli kommunikatsiya sifatida qaralishga loyiq emas. U ekspressiv-harakatli reaksiyalarga asoslangan, yuzaki va chegaralangan ma'lumot uzatish vositasidir. L. Vigotskiy buni hayvonot dunyosidagi sezish jarayoni bilan solishtirib, "qo'rqib ketgan gander" misoli orqali nutqsiz muloqot faqat holatni uzatish, ammo uni mazmunli ravishda tushuntirish imkonidan mahrum ekanligini nazariy asosda ko'rsatadi.

Xulosa. Bolalarda til va tafakkurning shakllanishi, inson shaxsining kognitiv va kommunikativ rivojlanishida ulaning o'zaro ta'sirini rivojlanishi bosqichma-bosqich, murakkab nutq ontogenezi jarayonida yuzaga keladi. Bola tug'ilganing sakkizinchi oyidan o'ninchi oyigacha bo'lgan davrda uning intellektual faoliyati asosan sensorimotor xarakter kasb etadi, ya'ni bu bosqichda bola reallikni asosan tafakkur va harakat vositasida o'zlashtiradi. Shunga qaramay, aynan shu davrda bola muloqotga kirishayotgan kattalarning nutqiy aktlari, ya'ni tilning lingvistik va mantiqiy mohiyatini sezgi-idrok asosida anglay boshlaydi. Ushbu dastlabki tilni o'zlashtirish jarayoni vizual va eshituv obrazlari, hissiy-rezonansli taqlidlar (masalan, quvonch, kulgi, qayg'u holatlariga reaktiv javoblar), onomatopeya va o'ziga xos ovoqli takrorlar orqali namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, bu bosqichda bolalarning nutqini o'stirishda imo-ishoralar, harakatli taqlidlar va ramziy o'yinlar orqali ham muloqotning asosi shakllana boshlaydi. Sakkizinchi oydan boshlab ikki-uch yoshgacha bo'lgan nutq ontogenezi davrida bola bilan muloqot qilayotgan kattalar nutqiy rivojlanishning o'tish davri xususiyatlarini inobatga olgan holda, o'z kommunikativ yondashuvlarini asta-sekinlik bilan murakkablashtirishlari lozim. Bu o'zgarish bolaga nisbatan qo'llanilayotgan nutqiy ontogeneznining sifat jihatdan yangi bosqichga o'tishini talab qiladi. Sodda va emotsional-fonetik jihatdan kuchli ifodalangan ifodalar bosqichma-bosqich normativ og'zaki nutqqa, bolani ijtimoiy til muhitiga moslashtiruvchi adabiy va madaniy iboralarga almashinishi kerak. Bu jarayonda nutq kontentining bolalar psixikasiga mosligi, metaforik strukturalar va qisqargan jumlar orqali fikrni ifodalash imkoniyati kengayadi. Ayniqsa ikki yoshga kelib bola bir so'zli iboralar bilan murakkab semantik tuzilmalarni ifodalash qobiliyatini namoyon qila boshlaydi, bu esa til va tafakkur integratsiyasining muhim bosqichi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Выготский Л.С. Мышление и речь // Выготский Л.С. Собрание сочинений. Т.2. Проблемы общей психологии. — М., 1982, — С. 6– 361.
2. Выгодский Л.С. Избранные психологические исследования. Мышление и речь. Проблемы психологического развития ребенка. М.: АПН РСФСР, 1956. — С. 519

3. Валлон А. Психическое развитие ребенка. — М., 1967; 2001
4. Леонтьев А.Н. О дальнейшем психологическом анализе деятельности // Леонтьев А.Н. Избранные психологические произведения. Т.2. — М., 1983, — С. 247–250.
5. Лурия А.Р. Развитие речи и формирование психических процессов // Психологическая наука в СССР. Т.1. — М., 1959, — С. 516–577.
6. Леонтьев А.А. Высказывание как предмет лингвистики, психолингвистики и теории коммуникации // Синтаксис текста, — М., 1979. — С. 18–36
7. Лурия А.Р. Язык и сознание. — М., 1979, — С. — 23
8. Слобин Д., ГринДж. Психолингвистика. — М., 1976. — С. 330.
9. Ступак Л.В. Онтогенез диалогической речи // Специальное образование. 2012. № 3. С. 109–113
10. Семенова А.А., Писаревская М.А. Психологопедагогические основы образовательного процесса: учебное пособие. Ч. 1. Новороссийск, 2021. — С. 488
11. Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. — М., 1987, — С. — 240
12. Палкин А.Д. Трактровка взаимосвязи языка и мышления: исторический экскурс // Вестник Московского института лингвистики. 2014. № 1. С. 54–65
13. Павлов В.М. Языковая способность человека как объект лингвистической науки // Теория речевой деятельности. — М., 1968, — С. 36–68.
14. Пиаже Ж. Комментарии к критическим замечаниям Л.С.Выготского на книги «Речь и мышление ребенка» и «Суждения и рассуждения ребенка» // Хрестоматия по общей психологии. Психология мышления. — М., 1981, — С. 188–193.
15. Пиаже Ж. Психогенез знаний и его эпистемологическое значение // Семиотика. Антология. — М., — Екатеринбург, 2001, — С. 98–110.
16. Пиаже Ж. Генетический аспект языка и мышления // [Электронный ресурс]. Сайт: «Материалы по философии». URL: <https://www.psychology-online.net/articles/doc-1525.html>

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА
INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000